

PARAZITAR KASALLIKLAR.GELMINTLAR



Xojiyeva Xayitxon Tolipovna

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi Yuqumli
kasalliklar va infeksiyon nazorat fani o'qituvchisi*

Gelmintlar yoki gijjalar - parazit chuvalchanglar oilasining vakillari bo'lib, odatda inson organizmida yashaydi va uning normal ishlashini buzadi (gelmintoz). Hozirgi vaqtda gelmintlarning 400 ga yaqin turlari ma'lum.

Zararlangan organda parazitlarning joylashishiga qarab ularning quyidagi turlari ajratiladi:



- luminal gelmintlar - ichak yo'llarida yashaydi (askaridoz, enterobioz, trixosefalyoz);
- hepatobiliar tizim gelmintlari - o't pufagi va jigarda yashaydi;
- o'pka gelmintlari - o'pkada yashaydi (paragonimoz, tominksoz);
- to'qima gelmintlari – mushak va miyada yashaydi (trixinellyoz, shistosomoz);
- oftalmogelmintlar - ko'zlarda yashaydi (filyarioz).

Bulardan eng keng tarqalgan kasalliklar enterobioz, trixosefalyoz va askaridozdir.

Gelmintozlar (yun. helmins, helminthos — gijja, qurt) — odam, hayvon va o'simliklarda parazit chuvalchanglar — gelshintlar qo'zg'atadigan kasalliklar. Odamda gijjalarning 150 dan ortiq turi uchraydi. Yashash sharoitlari: iqlim, tuproqning holati, dehqonchilik xususiyatlari va aholining gigiyenik ko'nikmalari darajasiga qarab

turli mintaqalarda turli xil gijjalar uchraydi. Asosan gijjalarning 4 sinfi: nematodalar, sestodalar, trematodalar va akantotsefallar parazitlik qiladi. Shunga ko‘ra tekshirish chogida topilgan gijjaning sinfiga karab nematodoz, sestodoz, trematodoz, akantotsefjj GJ gi

kabi guruhlariga ajratiladi; har bir guruhga bir necha turdagi gijjalar kiradi. Mas, enterobioz, askaridoz nematodoz guruhiga, ho‘kiz solityori, cho‘chqa solityori, keng tasmali gijjalar sestodozlar guruhiga mansub. Odam gijjalarning oraliq yoki mutlaq xo‘jayini bo‘lishi mumkin. G. kechishida o‘tkir va surunkali davr farq qilinadi. Olimlar orasida odamda gelmintlarning bo‘lishi ma’lum jihatdan uning qrn guruhiga ham boglik, degan fikrlar mavjud. O‘zbekistonda G.dan enterobioz, gimenolepidoz va askaridoz ko‘proq uchraydi.

Gelmintlar odamning nafas olishi, ovqat hazm qilishi, muskul sistemasi, jigar, taloq, qon, miya, ko‘z va b. a’zolarida parazitlik qiladi. Gijjalarning xili, soni va qaysi a’zoda bo‘lishiga qarab kasallik har xil kechadi. G.da odamning vazni hamisha kamayadi, u lanj, injiq bo‘lib qoladi, boshi aylanadi va hokazo. Gijja ichakda bo‘lsa, ich qotadi yoki ich ketadi, ko‘ngil ayniydi, ba’zan bemor qayt qiladi, jigarda bo‘lsa, ko‘z oqi va badan sarg‘ayadi, o‘pkada bo‘lsa, yo‘tal tutadi. G.da ko‘pincha mehnat qobiliyati pasayadi, bola yaxshi o‘smaydi, xotirasi susayadi va hokazo. Gijjalarning lichinkalari yoki tuxumlari topilishiga qarab tashxis qo‘yiladi. Serologik reaksiyalar (immun fluoressentlash, bevosita gemag-glyutinatsiya reaksiyalari va hokazo)dan foydalanish G.ni erta aniqlash va vaqtida tashxis qo‘yish imkonini beradi.

G.ning oddini olish uchun aholi orasida keng tushuntirish ishlari olib borish, pokizalikka rioya qilish muhim. Ayniqsa, yasli-bog‘chaga qatnaydigan bolalarning har biriga alohida tuvak bo‘lishi va qo‘llarini bot-bot sovunlab yuvib turishiga alohida e’tibor berish lozim. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, chala pishirilgan ovqatni iste’mol qilmaslik, ko‘kat va mevalarni obdon yuvib ishlatish, xom go’sht to‘g‘rashga ishlatiladigan taxtakachni pishganiga ishlatmaslik G.ning keskin kamayishiga olib keladi. Ko‘katlarni ishlatishdan I soat oldin 3%li [osh tuzi](#) eritmasiga solib qo‘yib, keyin yaxshilab chayib tashlansa, gijja tuxumlari butkul yo‘qoladi. Gijjalarning [turiga](#) qarab G.ning davosi har xil. Bemorni davolashda yaxshi naf beradigan dorilar mavjud. Ularni faqat vrach bilan maslahatlashib qo‘llash lozim.

Hayvonlarning G.ni yuqtirish yo‘llari turlicha. Gelmint tuxumlari yoki lichinkalari bo‘lgan yem-xashak va suvni iste’mol qilish orqali yoki gelmint lichinkasi teri orqali organizmga kirib oladi. G. ko‘pincha kasal hayvondan uning qornidagi bolasiga yuqadi. Nematoda lichinkasi aksariyat o‘simlik poyasiga yoki ildiziga bemalol kirib oladi. G. oqibatida hayvonlarning mahsuldorligi, o‘simliklarning hosili kamayadi, [hayvonlar](#) o‘ladi, o‘simliklar nobud bo‘ladi. Bu o‘z navbatida xalq xo‘jaligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

O‘zbekistonda trematodozlardan fassiolyoz, oriyentobilgarsioz, dikrotselioz; sestodozlardan moniyezioz, tizansezioz, avitellinoz, exinokokkoz, senuroz; nematodozlardan askaridoz va askaridioz, paraskaridoz, oksiuoz, gemonxoz, nematodiroz, xabertioz, diktiokaulez, protostrongilidezlar qishloq xo‘jaligi va uy hayvonlarida ko‘p uchraydi.

G.ga qarshi kurashishda go‘sh t va b. mahsulotlarni veterinariya-sanitariya nazoratidan o‘tkazish, tirik lichinkalar topilgan taqdirda iste‘molga yaroksiz deb topish, aholi yashaydigan joylar tozaligi, go‘ngdan o‘g‘it sifatida foydalanish ishlari ustidan qat’iy nazorat o‘tkazish va b. maxsus choralar ko‘rish zarur

Sabablar

Gijjalar inson organizmiga parazit tuxumlarini iste‘mol qilish orqali tushishi mumkin. Parazitlarning tuxumlari kir narsalarga tegilganda, tirnoqlarni tishlaganda, chala yuvilgan meva sa sabzavotlarni yoki chala pishirilgan go‘sh t va baliq mahsulotlarini iste‘mol qilganda odam organizmiga tushishi mumkin, shuningdek, gijjalar uy hayvonlaridan ham yuqishi mumkin.

Qurtlarning (gelmintozlar) belgilari

Organizmida gelmintlar mavjudligi belgilari turlicha bo‘lishi mumkin, bu esa qaysi parazit turi tana ichiga kirganligiga bog‘liq. Gelmintoz belgilariga quyidagilar kiradi:

- o‘zini yomon his qilish;
- holsizlik
- allergiya, eshakemi;
- charchoq, ruhiy tushkunlik;
- ishtahaning pasayishi yoki ortishi;
- ТОШХОТА;
- qusish;
- qorin bo‘shlig‘idagi o‘tkir og‘riqlar;
- uyqu paytida tishlarni g‘ijirlatish;
- defekatsiya buzilishi (ich qotishi va buzilishi);
- tez vazn yo‘qotish;
- parazitlar va ularning qismlari, shuningdek, tuxumlar axlat bilan chiqariladi;
- orqa chiqaruv teshigi atrofidagi qichishish;
- uyqusizlik.

Parazitlarning turlari har xil bo‘lganligi tufayli ular turli organlarga ta‘sir qiladi, bu aynan ichaklar va oshqozon-ichak traktining boshqa qismlari bo‘lishi shart emas. Agar jigar zararlangan bo‘lsa, alomatlar biroz boshqacha bo‘ladi: o‘ng ko‘krak ostida og‘riq, teri va ko‘z oqining sarg‘ayishi, ko‘ngil aynish kabilar.

Agar o‘zingizda shunga o‘xshash alomatlarni sezsangiz, darhol [shifokorga murojaat qiling](#). Kasallikning oldini olish oqibatlarini bilan kurashishdan osonroqdir.

Diagnostika

Har bir holat uchun alohida davolash usulini tayinlash uchun pediatr quyidagi tekshiruvlardan o`tishni buyuradi:

- Ichak rentgeni
- Gelmint tuxumlari uchun najasni analiz qilish
- Umumiy qon tekshiruvi
- canal teshigi atrofidagi terini qirib olish.

Qurtlarni (gelmintozlar) davolash

Gelmintozni davolash bir necha usul bilan amalga oshiriladi, jumladan:

- parazitlarga qarshi vositalar;
- sorbentlar;
- fermentlar;
- immunitetni kuchaytiruvchi vositalar;
- gepatoprotektorlar (jigar faoliyatini yaxshilovchi vositalar).

Xavf

Agar gelmintoz noto'g'ri davolansa yoki umuman davolanmasa, quyidagi asoratlari paydo bo'lishi mumkin:

- gepatit;
- ichak tutilishi;
- pankreatit;
- terining yiringli yaralari;
- kamqonlik.

Oldini olish

Parazitlarni yuqtirmaslik va kelajakda shifokorga bormaslik uchun, quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

- shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish;
- meva, sabzavotlar va boshqa oziq-ovqatlarni iste'mol qilishdan oldin yuvish;
- dengiz mahsulotlari, go'sht va baliqlarni iste'mol qilishdan oldin ularga yetarli darajada issiqlik bilan ishlov berish;
- bolalarni nazorat qilish, ularga ifloslangan narsalarni yeyishi yoki og`ziga solishiga qo`l qo`ymaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.I.Musaboev, A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va parazitologiya”. Toshkent, “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil
2. A.G.Rahmanova, V.K. Prigojina.«Инфекционные болезни». Санкт-Peterburg, izdatelstvo Piter, 2001 yil
3. Yuqumli kasalliklar // Ahmedova M.D. va boshq. Toshkent-2012.
4. O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash vazirligi **COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolash bo’yicha vaqtinchalik ko’rsatmalar (oltinchi versiya)** Toshkent -2020
5. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI saqlash VAZIRLIGI MILLIY PALATASI **COVID-19ni engil shaklda kechirayotgan bemorlarni uy sharoitida parvarishlash bo’yicha vaqtinchalik klinik qo’llanma** Toshkent-2020
6. Musaboev E.I., Bayjanov A.K. «OIV infektsiyasi va uning kasb orqali yuqish profilaktikasi». Toshkent, 2008y